

TARKIBIDA SALITSIL KISLOTA SAQLAGAN YUMSHOQ DORI SHAKLLARINING ASSORTIMENT TAHLILI

Pashakulova S.A.
Ramazonova K.R.

Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti 4-kurs talabasi,
Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti katta o'qituvchisi, farm.f.b.d (PhD)

E-mail: kamolaramazonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20700739>

Annotatsiya: Teri kasalliklarini davolashda keratolitik vositalar muhim o'rin tutadi. Ular terining qalinlashgan muguz qatlamini yumshatib, uning ko'chishini tezlashtiradi hamda boshqa dori moddalarning teriga kirib borishini yaxshilaydi. Keratolitik vositalar orasida salitsil kislotasi eng ko'p qo'llaniladigan faol moddalardan biri hisoblanadi. U terining qalinlashgan muguz qatlamini yumshatadi va ko'chishini tezlashtiradi. Shu sababli u tangachasimon temiratki (psoriaz), husnbuzar (akne), so'gallar, o'tkir uchli kondilomalar, terining muguz qatlami qalinlashishi (giperkeratoz) hamda boshqa dermatologik kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi. Salitsil kislotasi ko'pincha yumshoq dori shakllari, xususan maz, pasta, krem va gellar tarkibiga kiritiladi. Shu sababli farmatsevtika bozorida mavjud salitsil kislotasi saqlovchi yumshoq dori shakllari assortimentini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: salitsil kislotasi, yumshoq dori shakllari, maz, assortiment tahlili, dermatologik preparatlar.

Kirish: O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan salitsil kislotasi saqlovchi yumshoq dori shakllari assortimentini tahlil qilish va ularning farmatsevtika bozorida o'rnini baholash.

2024–2026-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Dori vositalari davlat reyestri ma'lumotlari asosida tarkibida salitsil kislotasi saqlovchi yumshoq dori shakllari assortimenti tahlil qilindi. Tahlil natijasida ushbu guruhga mansub 6 ta preparat aniqlanib, ulardan 5 tasi maz va 1 tasi pasta dori shaklida ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, mazlar umumiy assortimentning 83,3% ini, pastalar esa 16,7% ini tashkil etdi. Aniqlangan preparatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, 2 ta preparat monokomponent (Salitsil mazi 2% va Salitsil mazi 5%), 4 ta preparat esa kombinatsiyalangan preparatlar ekanligi aniqlandi. Kombinatsiyalangan preparatlar tarkibida salitsil kislotasi sink oksidi, flumetazon pivalat va betametazon dipropionat kabi faol moddalar bilan birgalikda qo'llanilgan. Bu esa salitsil kislotasining keratolitik xususiyatlarini yallig'lanishga qarshi va regeneratsiyani rag'batlantiruvchi ta'sirlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, assortimentning 50% ini mahalliy preparatlar tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasida Salitsil mazi 2%, Salitsil mazi 5% va Salitsil-sink pastasi ishlab chiqarilishi qayd etildi. Qolgan 50% preparatlar xorijiy ishlab chiqaruvchilarga tegishli bo'lib, ular Polsha, Shimoliy Makedoniya va Belgiya davlatlarida ishlab chiqarilgan.

Xulosa: Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, salitsil kislotasi saqlovchi yumshoq dori shakllari assortimentida mazlar ustunlik qiladi hamda kombinatsiyalangan preparatlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asosan salitsil kislotasining monokomponent preparatlari va salitsil-sink pastasi ishlab chiqarilayotganligi aniqlandi. Olingan natijalar salitsil kislotasi asosida yangi kombinatsiyalangan yumshoq dori shakllarini yaratish va mahalliyashtirish istiqbollari mavjudligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Карнаух.Э.В., Кошелева.Я.Ю. Кератолитики в дерматологии и косметологии // Студенческий научный форум: IV Международная студенческая электронная научная конференция. – 15 февраля – 31 марта 2012 г. – URL: <http://rae.ru/forum2012/282/2416>
2. Козин.В.М., Козина.Ю.В., Янковская.Н.Н. Дерматологические болезни и инфекции, передаваемые половым путем: учебно-методическое пособие. – Витебск: ВГМУ, 2016. – 409 с.
3. Zaytseva.V.A. Analysis of the assortment of the extemporal prescription in the pharmacies of Vitebsk and Mogilev region // Актуальные вопросы современной медицины и фармации: материалы 70-й научно-практической конференции студентов и молодых учёных (Витебск, 25–26 апреля 2018 г.). – Витебск: ВГМУ, 2018. – Ч. 2. – С. 827–828.
4. O‘zbekiston Respublikasi Dori vositalari va tibbiy buyumlar Davlat reyestri. – Toshkent, 2024–2026.